



MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA ELEKTRON TIJORAT AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li

Assistant, Namangan State Technical University

E-mail: bobur17083@gmail.com Tel: +998943044453

Annotatsiya:

Ushbu maqolada elektron tijorat o'sishiga ta'sir qilivchi omillar kamchiliklari bayon qilingan. Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish biznesida barqarorlikka erishish ilgariidan ko'ra misli ko'rilmagan darajada juda qiyin bo'lib ketgan

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, elektron biznes, blockchayin, investitsiya, import, eksport

Abstract:

This article describes the shortcomings of the factors affecting the growth of e-commerce. Nowadays, achieving stability in the service business is more difficult than ever before

Keywords: digital economy, e-commerce, e-business, blockchain, investment, import, export

Аннотация:

В данной статье описаны недостатки факторов, влияющих на рост электронной коммерции. Сегодня добиться стабильности в сфере услуг сложнее, чем когда-либо.

Ключевые слова: цифровая экономика, электронная коммерция, электронный бизнес, блокчейн, инвестиции, импорт, экспорт.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2018 yil 28 dekabrda 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida Yangilanishini ko'zda tutadigan "Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiyasi"ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli halqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda.

Elektron tijorat – bu kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy va savdo operatsiyalarini va shu kabi operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan biznes jarayonlarini o'z ichiga olgan iqtisodiyot sohasi hisoblanadi.

- Elektron tijoratga quyidagilar kiradi:
- Elektron ma'lumot almashish (Electronic Data Interchange, EDI);
- Elektron kapital harakati (Electronic Funds Transfer, EFT);
- Elektron savdo (inglizcha e-trade);
- Elektron pullar (e-cash);
- Elektron marketing (e-marketing);
- Elektron bank (e-banking);
- Elektron sug'urta xizmatlari (e-insurance).

Elektron tijoratning birinchi tizimlari va usullari sotishni avtomatlashtirish texnologiyalari paydo bo'lishi va korporativ resurslarni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy qilinishi bilan bog'liq.

Elektron tijoratning kamchiliklari:

Tashkilotlar uchun loyihaning kompaniyaga aloqadorligi to'g'risida tomonlarning shubhalari (salbiyanonimlik), Internetda korxona faoliyatini qonuniylashtirish va faoliyatidagi ayrim qiyinchiliklar.

Iste'molchilar uchun Internet orqali sotiladigan xizmatlarga iste'molchilar



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

ishonchsizligi, tovarlarni qo‘l bilan “ushlash” mumkin emasligi, sotib olingan mahsulotni yetkazib berishni kutish, tovarlarni qaytarishda mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va xarajatlar, mahsulotlarni yetkazib berish uchun qo‘shimcha xarajatlar. Jamiyat uchun firibgarlikning jozibador platformasi (tarmoq xavfsizligi darajasining pasayishi), oflayn-tijorat korxonalarini bozordan siqib chiqarishi.

O‘zbekiston chakana savdo bozori **2022** yil 31-dekabr holatiga **14 mlrd dollarga** baholandi. **2027-yil** yakunigacha bu ko‘rsatkich **19,6 mlrd dollarga** yetishi kutilmoqda. Elektron savdo bozori 2022-yil 31-dekabr holatiga jami chakana savdo bozorining 2,2 foizini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2027-yil yakunlariga borib **9 foizdan 11 foizgacha** oraliqda shakllanishi kutilmoqda. Ya’ni 1,8–2,2 mlrd dollar bo‘lishi, o‘shish tempi 2022–2027-yillar davomida 41,4–47,4 oraliqda bo‘lishi prognoz qilingan.¹

Ijtimoiy tarmoqlari mavjud bo‘lgan onlayn do‘konlarda savdo 32 foizga ko‘p. O‘rtacha elektron tijorat sayti haftasiga 4,55 ta xabarni o‘zlarining Facebook sahifalarida nashr etadi. Xaridorlarning 74 foizi sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilishda o‘zlarining ijtimoiy tarmoqlariga tayanishadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi buyurtmalarning 85 foizi Facebookdan keladi. Instagram foydalanuvchilari 75 foiz reklama xabarini ko‘rgandan keyin saytga tashrif buyurgan. Instagramdan jalb qilingan mijozlar uchun o‘rtacha buyurtma qiymati 65 dollarni tashkil etadi.

Elektron tijorat bozori o‘shishiga quyidagi omillar ta’sir qilishi kutilmoqda:

- Internet qamrovi va tezligi oshishi buning natijasida ko‘proq odamlar onlayn xarid platformalariga kira oladi.
- Odamlarning smartfonlardan foydalanish imkoniyati oshishi va mobil banking tizimidagi yutuqlar bu raqamli tranzaksiyalarni osonlashtiradi, xaridorlar elektron savdo jarayoniga jalb etilishini yanada qulayroq qiladi.
- Xufiyona iqtisodiyot bilan kurashning davom ettirilishi bu investorlarda xotirjamlikni oshirishi va elektron tijorat sektoriga ijobiy ta’sir o‘tkazishi, bozor hajmining o‘shishiga olib kelishi kutilmoqda.
- Iqtisodiyotdagi naqd pulsiz to‘lovlar ulushining o‘shishi uchun harakat qilinishi O‘zbekiston naqd pulsiz to‘lovlar ulushi bo‘yicha qo‘shni va rivojlangan

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/25/e-commerce/>



mamlakatlardan ortda hisoblanadi. Bu o‘z-o‘zidan mamlakatda raqamli to‘lov usullarining moslashuvchanligini rag‘batlantirish orqali elektron tijorat bozorida o‘shisha erishish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Elektron tijoratning rivojlanishi, shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlar, mijozlarning ehtiyojlari va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun yuqori malakali mutaxassislarini talab qiladigan yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Ularni yuqori texnik mahoratga ega bo‘lmagan xodimlar band qila olmaydi. Elektron tijorat texnologiyalari tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi, bu ishlab chiqaruvchilarga ham, iste’molchilarga ham vositachilarsiz ishlashga imkon beradi. Bunga eng maqbul narx takliflari va guruhli xaridlarni qidirishni kengaytirish orqali erishiladi. O‘zbekistonda elektron tijorat sanoatidagi to‘siqlar

1. Logistika va infratuzilma muammolari

Elektron tijorat mahsulotlarni o‘z vaqtida yetkazib berish uchun samarali logistika va transport tizimlariga muhtoj. Infratuzilmaning yetarlicha samarador emasligi buyurtmalar kechikishiga va mijozlar qoniqish darajasining pasayishiga olib keladi. O‘zbekistonda transport infratuzilmasi elektron tijorat uchun yetarlicha samarador tashkillashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, xarajatlarni va buyurtmalarni yetkazib berish vaqti oshishiga olib kelayotgan bo‘lishi mumkin.

2. Elektron tijorat infratuzilmasining cheklanganligi

Mamlakatda raqamli infratuzilma, shu jumladan, internet qamrovi boshqa, iqtisodiyoti o‘xshash mamlakatlardagichalik rivojlanmagan bo‘lishi mumkin.

3. To‘lov tizimlariga integratsiya va moliyaviy xizmatlar

Xavfsiz va ishonchli to‘lov tizimlariga integratsiya qilish ta’minotchi uchun juda muhim masala hisoblanadi, ayniqsa, variantlar cheklangan sharoitda. Bundan tashqari, onlayn to‘lov yechimlari mavjudligi bilan bog‘liq muammolar pul oqimini sekinlashtirishi mumkin.

4. Xaridorni qo‘llab-quvvatlash va sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatish

O‘zbekistonda elektron tijorat uchun samarali xaridor xizmati infratuzilmasini shakllantirish texnologiyalarga investitsiya kiritish va malakali personalni talab



qiladi. Kichikroq kompaniyalar resurslar chegaralangani tufayli xaridorga xizmat ko'rsatishning onlayn usullariga moslashish qiyin bo'lishi mumkin.

5. To'lov xavfsizligi xavotirlari

To'lovlar xavfsizligi masalasi O'zbekistonda elektron tijorat o'sishiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Xaridorlar o'zlarining moliyaviy ma'lumotlarini onlayn to'ldirish davomida ma'lumotlarning tarqalishi, firibgarlik kabi omillardan xavotirga tushishi mumkin.

6. Xaridorlar xulq-atvori

O'zbekistonda ayni vaqtdagi xaridor xulq-atvori jonli bozor qilishga, naqd pul ishlatishga va texnologiyalarga sekin moslashishga moyil. Bu elementlar birgalikda mamlakatdagi bozor qilishning milliy yondashuvini tashkil etadi va elektron tijorat o'sishiga to'siq bo'lishi mumkin.

7. Internet qamrovi cheklanganligi

Internet qamrovi pastligi tufayli aholining yetarlicha katta qismida onlayn aloqalar mavjud bo'lmasligi mumkin. Bu marketpleyslarni aylanish va onlayn buyurtmalar berish imkoniyatini cheklashi va elektron tijorat korxonalarini potensial xaridorlar bazasidan cheklab qo'yishi mumkin.

8. Raqamli savodsizlikning kuchayishi

Raqamli savodsizlik internet aloqalari cheklangan hududlarda yoyilishi mumkin. Ba'zi potensial xaridorlar internet yoki onlayn xarid platformalaridan xabardor bo'lmasligi mumkin. Bu ularning elektron tijorat operatsiyalariga kirishini qiyinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Botirjon o'g'li, M. B., & Hasanboy o'g'li, S. D. (2022). ORGANIZATION AND INCREASE OF ACTIVITY OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.
2. Zokirjonovich, B. M., & Botirjon o'g'li, M. B. (2023). O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING XORIJ TAJRIBASIDAN



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

-
- FOYDALANISH. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1)..
3. Botirjon o'gli, M. B., & Shaydullo o'g'li, R. D. (2023). KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARINI RIVOJLANISH MASALALARI. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND
 4. Мухитдинов, Ш. З. (2021). ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ХАТАРЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 939-943.
 5. Rashidov, R. A., Hasanboeva, N. H., & ogli Otakhonov, S. M. (2021). ISSUES OF USING BANK CREDITS IN DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP. Journal of Central Asian Social Studies, 2(02), 148-159.